



ALEKSANDR MAKEDONSKIYNING HAYOTI VA BOSIB OLINGAN HUDUDLARDAGI MADANIY HAYOT

O'razmatov Og'abek Komiljon og'li

Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Aleksandr Makedonskiy hayoti va bosib olingan hududlardagi madaniy hayotga bag'ishlangan. Aleksandr Makedonskiyning hayotiy faoliyati o'z mamlakati tarixini yoritishga, bosib olingan hududlardagi madaniy hayotni chuqur o'rganishga va tarxini isbotlashga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Lirada, razvedka, busefaliya, Filipp Arridiy, Roksana, Gomer, Hindukush, Sulaymon, I. B. Driozen.

Аннотация: Македонского и культурной жизни на оккупированных территориях. Жизнедеятельность Александра Македонского посвящена освещению истории его страны, углубленному изучению культурной жизни на завоеванных территориях. территорий и доказать свою историю.

Ключевые слова: Лирада, интеллект, буцефал, Филипп Арридий, Роксана, Гомер, Хиндикуш, Сулаймон, И. Б. Дриозен.

Abstract: This article is devoted to the life of Alexander the Great and the cultural life in the occupied territories. The life activity of Alexander the Great is devoted to the illumination of the history of his country, to the in-depth study of the cultural life in the conquered territories, and to the proof of its history.

Key words: Lyrada, intellect, butsecephal, Philip Arridius, Roksana, Homer, Hindikush, Sulaymon, I.B. Dryozen.

Aleksandr hayotidagi eng muhim inson bu otasi Filipp II Makedonskiy edi. O'z podsholigi uchun qilgan ishlari nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, Filipp Aleksandr dan yaxshiroq shoh edi. Filipp xalqning yaxshi yashashi uchun majburiyatlarni bajargan. Filipp miloddan avvalgi 359 –yilda taxtga o'tiradi. Davlat tashkil topganda hech qanday armiyasi va iqtisodiyoti mavjud bo'lmagan edi. Filipp 23 yillik hukumronligi davrida mustahkam armiyani tuzgan va keyinchalik bu tuzilgan qo'shindan Aleksandr foydalanib Osiyoni qo'lga kiritgan. Aleksandrning barcha yutuqlarga erishishiga otasidan qolgan barqaror va mustahkam podsholik hamda qudratli armiya xizmat qilgan. Aleksandrning yoshligi haqida aytadigan bo'lsak bolaligidan yuqori intellekt sohibi bo'lgan. 6 yoki 7 yoshida lirada kuy chala



olgan ,katta yoshli insonlar bilan turli mavzularda suhbatlar qurgan.U butun grek adabiyotini o'qib chiqan. Gomer eng sevimli yozuvchisi bo'lgan. Aleksandr 14 - 16 yoshga to'lganda Aristotel unga ustozlik qilgan.Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 336 – yilda taxtga keladi va oradan ikki yil o'tgandan keyin ya'ni miloddan avvalgi 334- yilda SHarqqa hujum qiladi.SHarqqa hujumi natijasida Kichik Osiyo ,Suriya,Misr ,Eron va Hindistonda katta-katta hududlarni bosib oladi.Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoni bosib olish uchun 3 yil bosib olish uchun uringan. Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoga yurishlari davomida uncha katta bo'lmagan hududlarni ya'ni Marg'iyona, Baqtriya ,So'g'diyona , hozirgi Bekobod va Xo'jand orasida Sirdaryo bo'ylarini bo'ysundirishga muaffaq bo'ladi.Toshkent ,Xorazm va Farg'ona mustaqilligicha qolib ketgan . Taxminlarga ko'ra Xorazmning mustaqil bo'lib qolib ketganligining sababi xorazmshoh Farasman bilan tuzilgan shartnoma bo'lishi mumkin .Aleksandr Makedonskiyning Hindistonga yurushi Miloddan avvallgi 329-327yillarda Turondagi istilolardan so'ng 120 minglik qo'shin bilan Hindikush va Sulaymon tog'laridan o'tib Panjob o'lkasiga bostirib kiradi.Panjobdagi mayda davlatlarning ko'pchiligi Makedoniyalik Aleksandrga itoat etadilar.Ammo Panjobdagi eng kuchli podsholardan biri Por Aleksandrga qarshi kurashga o'tlanadi.Por ixtiyorida30 ming piyoda,4 ming otliq askar ,3000 ming jang arava va200 jangovar fil mingan jangchilar bor edi. Ushbu jangda Por 9 joyidan jarohatlanib halok bo'ladi va bu jangda 2 o'gli ham o'ladi. Bu jang faqat Panjopliklar uchun emas balki Aleksandr uchun ham fojia bo'ldi ,chunki bu jangda Aleksandrning sevimli jangovar oti Butsefal ham halok bo'ladi. Halok bo'lgan oti sharafiga Hind daryosi bo'yida shahar barpo qildirgan .Bu hududga ham shaharsozlikning yangi namunanalari kirib keladi va madaniyatning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan ..Aleksandr Makedonskiy SHarqqa yurishlari davomida “Elinizm” ning kirib kelishiga imkon yaratgan .”Ellin” atamasi dastlab nemis olimi I.G.Dryozenning 1836 -1843 –yillarda chop etigan 2 jildli “ Elinizm tarixi” asarida qo'llanilgan va ushbu atama orqali ellinlarning Sharq mamlakatlaridagi hukumronligi va ular madaniyatining Sharq xalqlar madaniyati bilan uyg'unlashib ketadi .Makedoniya shohi Aleksandr tomonidan Yunoniston hududi bosib olinadi va yunon makedonlardan to'plangan katta qo'shin bilan SHarqqa hujum uyishtiriladi.Yunon makedoniyaliklar Sharqqa ishlab chiqarish malakalarini va o'z davlat huquq me'yorlarini ,urf-odat ,din va madaniyatlarini olib keldilar ,o'z navbatida ,Sharqdan ham o'rgandilar.Ellinizm davrida turli xalqlarning madaniyat darajalari har xil bo'lsada o'ziga xos rivojlanish yuz bergan edi. Dunyoda davlat bor ekanki o'zlarining o'ziga xos madaniyatiga egdirlar shu qatori Aleksandr davlatida



ham o'ziga xos madaniyat shakillangan edi. Miloddan avvalgi 323 –yil 10 –iyun kuni vafot qilgan ekan yani Bobilda ziyofat uyushtiriladi va ziyofatning o'n birinchi kuni 34 yoshga qaragan vaqtida vafot etgan. Aleksandr vafot etgandan keyin taxt vorisi yo'q edi taxtga vaqtinchalik ukasi Filipp Arridiy shoh vazifasini bajargan. Aleksandr vafot etgan paytida rafiqasi Roksana homilodor edi. Oradan bir necha hafta o'tgandan keyin o'gil farzand dunyoga keltiradi. Aleksandr IV tug'ilganida u ham shohga aylangan va natijada dualistik monarxiya paydo bo'lgan. Oliy qo'mondonlik imperiyani o'zaro bo'lishib olgan. O'z davrida yuqori cho'qqisiga erishgan davlat parchalanib ketadi. Vorislari davrida davlatni bo'lib olishgan edi.

Xulosalar: Aleksandr Makedonskiy yosh bo'lishiga qaramasdan o'z davring yetuk va qudratli davlatini barpo qildi. Bu davlatning paydo bo'lishida otasining xizmatlari ham katta. Otasi davrida yaratilgan qo'shin va o'zi tomonidan ishlab chiqilgan temir intizom va yuzishlari davridagi qulay ishlangan strategiya orqali davlatni boshqaradi. Yoshlik davridanoq bilimga chanqoq bo'lgan va katta kichik bilan muomilani o'rganadi. Tarixdan malum hamma hukumdorlar ham otasining davridagi qudrati davlatning yana uzoq yillar yashashi uchun harakat qilishmagan, davlatning qudratini yanada oshirishga o'zing katta hissasini qo'shgan insonlardan biri Aleksandr Makedonskiydir. Bu davlat taixi haqida ko'plab yozma manbalar va qilingan tadqiqot ishlari orqali ko'plab ma'lumatlar to'langan va kelajakda ham bu ishlar davom etadi va tarixning ochimagan qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rajabov R.R. Qadimgi dunyo tarixi. (Sharq, Yunoniston, Rim).T., <<Fan va texnologiya>>, 2009 , 440 bet
2. A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy Qadimgi dunyo tarixi (6-sinf darsligi). Toshkent: <<Yangiyo'l poligraf servis>>, 2017. -192 bet
3. A.Kabirov- "Qadimgi Sharq Tarixi". <<Tafakkur>> nashiryoti. Toshkent .2016 .276-280 betlar
4. www.Daryo .uz
5. O'zbekiston milliy esnsiklopediyasi 2000-2005-yillar